BG Pulse Journal USA
ISSN:1947-2536 http://www.bgpulseusa.com/index.php/bg
BG PULSE JOURNAL

# THE PLACE OF WOMEN IN SOCIETY (BASED ON ARCHAEOLOGICAL AND WRITTEN SOURCES)

Dr. of History, Uzbek State University of History, PhD (DSc)
**Khidirova Nargizahon Urinovna**

**Анатация**

Mazkur maqlada ayollarning jamiyatda tutgan o‘rni matriarxat davridan boshlab milodiy VII-VIII asrlargacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Maqolada ona mabudi Nagoya, arxeologik topilmalarda aks etgan ayollarga oid tasvirlar manbalarga tayanib tahlil etilgan. Shuningdek, ayollarga xos ramziy belgilar, ayollarga tegishli qabrlar haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** matriarxat, Ayritom, Sarazim, Umayana, ayol, ona, arxeologiya, haykal, terrokada.

**Аннотация**

В данной статье рассматривается период от матриархального правления до VII-VIII веков н.э. В статье анализируется образ богини-матери Нагоя, изображения женщин, отраженные в археологических находках, основанных на источниках. Также приводится информация о символических знаках, характерных для женщин, и о женских захоронениях.

**Ключевые слова:** матриархат, Айритом, Саразим, Омейяна, женщина, мать, археология, скульптура, террокада.

**Abstract**

This article examines the period from matriarchal rule to the 7th-8th centuries CE. It analyzes the image of the Nagoya mother goddess and depictions of women reflected in archaeological finds based on historical sources. It also provides information on symbolic signs characteristic of women and on female burials.

**Keywords:** matriarchy, Ayritom, Sarazim, Umayyad, woman, mother, archaeology, sculpture, terrocade.

Matriarxat insoniyat tarixining ma’lum bir bosqichida, ibtidoiy podaning dastlabki davridan keyin paydo bo‘lgan va uyushgan ibtidoiy jamiyat taraqqiyotining ilk davri hisoblanadi. Shu bilan birga bu davrda moddiy madaniyat, iqtisodiyot, nikoh va ijtimoiy munosabatlar, ma’naviy madaniyatning ilk arxaik ko‘rinishlari ham shakllangan[1]. Matriarxat davrida ovchilik bilan erkaklar, qishloq xo‘jaligi, chorvachilik bilan esa ayollar shug‘ullangan va ular paleolit davridan boshlab ip yigirish, to‘qish texnologiyalarini yaratganlar[2].

Matriarxal madaniyatda oliy xudo odatda ona ma’buda obrazi bo‘lib, uning asosiy vazifasi dunyo va barcha tirik mavjudotlarni yaratishda ishtirok etish, hosildorlikka homiylik qilish, qonunlar hamda yashirin bilimlarni o‘z ichiga olgan ijodiy vazifalarni bajarishdan iborat edi[3]. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, u ibtidoiy odamlarning eng muqaddasi bo‘lib, ona tasvir uchta asosiy nasl berish (tug‘ish), oziq-ovqat olish, vaqtni o‘zgartirish (o‘lim va qayta tug‘ilish)

[1]Косвен М.О. Матриархат. Историуа проблемы. Москва. 1948. – С.3.
[2]Сулейманов Р.Х. Истоки женского культа в Средней Азии // Ўзбекистоннинг энг янги тарихини ўрганиш назарий методологик асослари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Қарши. 2016. – Б. 43-48.
[3]Ворошилова О. Н. Образ женщины в религиях // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. Т. 23. – С. 33–37. – URL: http://e-koncept.ru/2017/770428.htm. . (murojaat qilingan sana 10.01.2018).

jihati bilan muqaddaslashtirishga undaydi[4]. Akademik A.Asqarovni ta'kidlashicha, yuqori paleolit davrida (mil. avv. 40-12 mingyilliklar) ilk jamoa, jamiyatning dastlabki kurtagi matriarxat, ya'ni ona urug'i, urug'chilik jamoasi tarkib topgan, onalarga jamoani sardori, urug'ni davom ettiruvchi iloh sifatida qarash paydo bo'lgan. Shuning uchun bu davrda birinchi bor onalarning siymolarini chizish, haykallarini yasash boshlanib, ibtidoiy san'at kashf etilgan[5].

Xususan, Sarazm I madaniyatiga oid urug'-oila jamoasiga tegishli xilxona topilgan va uning markaziy qabri ayolga tegishli bo'lib, undan naqshinkor sopol parchalari, mis oyna, oltin va kumushdan yasalgan taqinchoqlar, turli toshlardan yasalgan munchoqlar topilgan[6]. Sopollitepa aholisi dastlab vafot etgan yaqinlarini o'zlari yashab turgan uylarining poli ostiga ko'mgan. Ayollar ko'p hollarda o'choq boshiga erkaklar esa, xona kirish eshigi ostiga ko'milgan[7].

Markaziy Osiyo mintaqasida miloddan avvalgi I ming yillik boshlarida Xorazm, Baqtriya, Ariya (Ariana), Parfiya, Girkaniya, Marg'iyona, Farg'ona (Davan) kabi qadimgi davlatlar tashkil topgan[8]. Ushbu hududlarda so'g'd, sak, massaget, qang', baxtar kabi etnik birliklar va qarluq, chigil, yag'mo, tuxsi, xalach, arg'in, o'g'uz, qipchoq, qangli singari turkiy qabila va urug'lar istiqomat qilgan. Islom dini yoyilganiga qadar zardushtiylik, buddaviylik, moniylik (manixeylik) kabi dinlar va ta'limotlarga e'tiqod qilingan. Ushbu dinlar Markaziy Osiyoga xos qadimgi madaniyatning shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Ayol - ona obrazi eng qadimgi obrazlardan biri bo'lib, u yer va Osmon kuchlarining hukmdori, urug' qo'riqchisi kabi diniy ramzlar sifatida ishlatilgan hamda fetish[9] rolini bajargan[10]. Afrosiyobdan topilgan haykalchalar orasida ayol ma'budi Nagoyning[11] terrakotalari[12] ham bo'lgan[13]. Ular nozik gavdali, ikki qo'li kaftlari bilan ko'kragini tutib turgan yoki ikki qo'lini qorni ustiga qo'ygan holda tasvirlangan. Garchi G.A. Pugachenkova va G.A. Rempellar o'z tadqiqotlarida terrokadalarning nima uchun bunday tasvirlanganiga aniqlik kiritmagan bo'lsa-da, biz o'zimizning ayrim mulohazalarimizni aytib o'tishni o'rinli deb bildik. Ayol eng avvalo avlod davomchisi bo'lgan farzandni dunyoga keltiruvchi shaxs hisoblanadi. U farzandni to'qqiz oy raxnida ko'tarib, chaqaloq dunyoga kelganidan so'ng uni ma'lum muddat ko'krak suti bilan boqib ulg'aytiradi. Balki yuqorida keltirilgan haykalchalarda shunga ishora qilingandir. O'rta Osiyo

---

[4]Горшунова О.В. Женское божество в системе религиозно-мировоззренческих представлений народов Средней Азии. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора исторических наук. Москва. 2007. – С.19.
[5]Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиши. Тошкент. Ўзбекистон. 2015. – Б. 78.
[6]Ko'rsatilgan manba. – Б. 141.
[7]Ko'rsatilgan manba. – Б. 146.
[8]Qadimgi davlatlar haqida batafsil qarang: Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи (энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). Тошкент. 2000. – Б.367; Ртveладзе Э.В, Саидов А.Х, Абдуллаев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. Тошкент. 2001. – Б.415.
3 Ртveладзе Э.В. Цивилизаци, государства, культуры Централной Азии. Ташкент: 2005. – С.287.
[9]Fetish (fetishizm) – g'ayritabiiy xususiyatga ega deb hisoblanadigan jonsiz narsalarga sig'inish.
[10]Пугаченкова Г.А. Рempел Р.И. Выдающсия памятники изобразителного искусства Узбекистана. Ташкент. 1958. – С. 28.
[11]Nagoy (Nana yoki Nanay) – qadimgi Shummer-Akkad davlatida asosiy ayol xudolardan biri, u unumdorlik, sevgi, urush va nizolar ma'budi hisoblangan.
[12]Terrokada – loydan ishlanib, xumdonda pishirilgan, lekin sirlanmagan va rang berilmagan mayda haykalchalar.
[13]G.A. Pugachenkova va G.A. Rempellarning ta'kidlashicha, ushbu terrokadalar old Osiyoning qadimgi davlatlari Vavilondagi Ishtar, Shummer-Akkaddagi Nanay ayol xudolariga o'xshaydi va ular Eron davlati vujudga kelguncha Elamda asosiy kult hisoblangan. Qarang: Пугаченкова Г.А. Рempел Р.И. Выдающсия памятники изобразителного искусства Узбекистана. – С.42.

neolit davrining Jeytun (Janubiy Turkmaniston) manzilgohidan o‘tirgan holatda tasvirlangan boshi va qo‘llari bo‘lmagan yassi ayol tosh haykalcha ham topilgan[14].

Shuningdek, yuqorida keltirilgan tasvirlarga o‘xshagan tosh haykallar Qozog‘istonning Mangistau viloyatida joylashgan[15] Qizil qal’adan ham topilgan[16]. Tadqiqotchilarning fikricha, ushbu haykallarda ayol tabiatining mohiyatini aks ettiruvchi gender belgilari mavjud bo‘lib, bu ayollarning fiziologik xususiyatlarining tasvirlanishi bilan bog‘liq[17]. Ayolning hayz ko‘rishi bilan bog‘liq qon tomchisi tasvirining aks etishi, uning avlod davomchisi ekanligini ko‘rsatgan[18]. Bundan tashqari, qadimgi Yenisay (Enasoy) bo‘ylarida yashagan qabilalarga tegishli topilmalar orasida ko‘kraklari bo‘rtib turgan yosh homilador ayollarning haykallari ham topilgan[19]. Homilador ma’budalar sehrli atribut sifatida ishlatilgan va ular tug‘ishni osonlashtiradi deb ishonilgan[20]. Ba’zi haykalchalar dafn marosimlari uchun mo‘ljallangan va ular qabrlarda topilgan.

Shuningdek, yoshi ulug‘, do‘mboq yuzli, katta burunli, tor iyakli, ko‘zlari yerga qaragan va xuddi qo‘lida chaqaloq ushlab turgandek tasvirlangan ayol haykalchasi ham mavjud. Tadqiqotchilarning fikricha, qadimgi Xorazmliklar uni “qizlar va o‘g‘il bolalar onasi” Mardona deganlar, moniylik (manixay) matnlarida esa u Nana deb atalib, «butun mavjudotlar onasi» hisoblangan[21]. Qadimgi turkiy bitiklarda u Mayana, o‘zbeklarda Umayana, tojiklarda momo yoki bibi deyilgan. Samarqandning ayrim hududlarida keksalarga nisbatan Mardona so‘zi ham qo‘llanilgan[22].

Afsonalarga ko‘ra, Umay (Umayana) turkiy xalqlar orasida nafaqat tug‘ish va yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning ma’budi bo‘lgan, balki o‘z turmush o‘rtog‘i Tangri[23] bilan birgalikda jangchilar homiysi hisoblangan[24]. U odamlar himoyachisi, gunohkorlarni jazolovchi ham bo‘lgan.

---

[14]Горшунова О.В. Женское божество в системе религиозно-мировоззренческих представлений народов Средней Азии. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора исторических наук. Москва. 2007. – С.22.

[15]Калменов М.Д. Археологические аспекты планировки и территориалных границ средневекового городища Кызыл-кала (X–XIII века) // Вестник Челябинского государственного университета. 2012. № 16 (270). История. Вып. 51. – С.5–7.

[16]Ushbu arxeologik topilma L.N. Yermolenko va L.N. Kurmankulov tomonidan o‘rganilib tadqiq etilgan. Qarang: Ермоленко Л.Н. Курманкулов Ж.К. Святилище на реке жинишке и проблема первоначалного вида кыпчакских извяний //Археология, этнография и антропология Евраазии. 3 (11) 2002. – С.78 – 88; Средневековые каменные извяания Казахстанских степей (типология, семантика в аспекте военной идеологии и традиционного мировозрения). Новосибрск. 2004. – С.132; Проблема иконографических истоков половецкой скулптуры и особенное кыпчакское извяание из урочища Кызлы / Л. Н. Ермоленко, Ж. К. Курманкулов // Изв. Нац. акад. наук Респ. Казахстан. Сер. обществ. и гуманит. наук. 2013. № 3. – С.155 –164.

[17]Усманова Э.Р. Гендерная символика на средневековом каменном извяании //Известия Иркутского государственного университета. 2016. Т. 17. – С. 94 – 108. https://izvestiageoarh.isu.ru (murojaat qilingan sana 10.01.2018).

[18]Ko‘rsatilgan manba.

[19]Кызласов Л.Р. Древнейшая Хакасия. Москва. 1986. – С.208.

[20]Горшунова О.В. Женское божество в системе религиозно-мировоззренческих представлений народов Средней Азии. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора исторических наук. Москва. 2007. – С.37.

[21]Пугаченкова Г.А., Ремпел Р.И. Выдающиеся памятники изобразительного искусства Узбекистана. – С.43.

[22] Ko‘rsatilgan manba. – С. 43.

[23]Tangri (yoki Ko‘k Tangri) – osmondagi xudo, turk va mo‘g‘ul xalqlarining bosh xudosi.

[24]Мармонтова В. Тенгрянство как традиционная система мировозрения кочевников //Централная Азия от ахеменидов до тимуридов археология, история, этнология, культура. Материалы международной научной

Qadimda ayollarning o‘ziga xos hashami, nozik va go‘zalligini ifoda etuvchi rasmlar, haykalchalar ham ishlangan. Misol tariqasida Xorazm shohlariga tegishli Tuproqqal’a (I–III asr)ning katta zalidan topilgan devor suratlarida meva terayotgan va chiroyli nozik qo‘llari bilan arfa chalayotgan qizlar, yuzlarida ma’lum bir mazmunli ifoda aks etgan saroy xonimlarini uchratish mumkin[25]. Ular orasida Xorazm shohlaridan biri Vazmarning[26] xotini ham bo‘lib, uning yuzi to‘liq shaklda, katta qoshlari ostida kichikroq tiyrak ko‘zlar, kichkina og‘iz, bo‘rtib turgan nozik lablar, chalmaga[27] o‘xshagan bosh kiyim kiygan va sokin saroy hayotiga mahkum qilingan ayol qiyofasida tasvirlangan. Shuningdek, bu yerda erkaklarga xos shijoat, hayotga ishonch bilan qarab turgan o‘rta yoshli, mahalliy aholiga xos keng burmali ko‘ylak kiygan ayol surati ham mavjud. Qadimgi Xorazmning Angk qal’a hududidan topilgan ayol haykalchada ham bodom qovoqli, qoshlari birlashib ketgan ayol tasvirlangan[28].

Surxondaryo viloyatida joylashgan Ayritom (I–II asrlar) xarobasidan topilgan arfa chalayotgan ayol tasviri juda mashhur bo‘lib, unda ham mahalliy ayollarga xos joziba aks ettirilgan. U boshiga hashamatli bosh kiyim kiygan, qalin matodan tikilgan burma ko‘ylakli, turli xil taqinchoqlar bilan bezangan.

Buxoro viloyatidan topilgan Varaxsha saroyida (VI–VIII asr) haykaltaroshlik, rassomlik va arxitekturaning sintezlashgan shaklini ko‘rish mumkin[29]. Bu yerda raqqosalar, ayollar, qiz-qushlar tasviri berilgan.

VI–VII asrlarga oid So‘g‘d kumush ko‘zachalariga chiroyli oy yuzli do‘mboq ayollarning tasviri tushirilgan[30]. Ular qo‘llarida qadimgi diniy ibodat marosimlariga oid qush (tovuq)[31], tustovuq[32], o‘rdak[33], lola[34], anor[35] kabi ramziy narsalarni ushlab olgan. Bu holat diniy marosimdan tortib, to lola sayli va Mehrjon kabi keng nishonlanadigan xalq bayramlarini o‘zida aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda ayollarning jamiyatda tutgan o‘rnini arxeologik va yozma manbalar asosida o‘rganish tarixni ochiq qolgan sahifalarini to‘ldirishga yordam beradi.

---

конференции, посвященной 100-летию со дня рождения Александра Марковича Беленицкого Санкт-Петербург, 2 – 5 ноября 2004 года. Санкт-Петербург 2005. – С.347.

[25] Пугаченкова Г.А., Ремпел Р.И. Выдающиеся памятники изобразителного искусства Узбекистана. – С.13.

[26]Vazamar – III asr ikkinchi yarmida hukumronlik qilgan. Ungi tegishli tangalar III asr 60 – 70 yillarda zarb qilingan. Qarang: Вайнберг. Б.И. Монеты древнего Хорезма. Москва. 1977. – С.79.

[27]Chalma-salla; do‘ppi va to‘nlar chetiga tutiladigan ensiz jiyak. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. З.М. Маъруфов таҳрири остида. II том. Москва. 1981. – Б.351.

[28]Вайнберг Б.И. Уникалное терракотовое изделие из древнего Хорезма. Централная Азия от ахеменидов до тимуридов археология, история, этнология, культура Материалы международной научной конференции, посвященной 100-летию со дню рождения Александра Марковича Беленицкого Санкт-Петербург, 2–5 ноября 2004 года. – С.340.

[29]Пугаченкова Г.А., Ремпел Р.И. Выдающиеся памятники изобразителного искусства Узбекистана. – С.20.

[30]Пугаченкова Г.А., Ремпел Р.И. Выдающиеся памятники изобразителного искусства Узбекистана. – С.155.

[31]Tovuq – sof rang eltuvchisi va quyosh xabarini beruvchi hisoblangan. Ramzlar haqida qarang: Пугаченкова Г.А., Ремпел Р.И. Выдающиеся памятники изобразителного искусства Узбекистана. – С.155.

[32] Tustovuq – olov bilan bog‘liq ramzni bildirgan.
O‘rdak – sog‘liq va boylik timsoli.

[33]O‘rdak – sog‘liq va boylik timsoli.

[34]Lola – bahorda uyushtiriladigan lola sayliga ishora.

[35]Anor – Abu Rayhon Beruniyning keltirishicha, Mehrjon bayrami kuni anor tanovul qilinib, gul suvi hidlagan kishidan ko‘p ofatlar daf bo‘lar ekan. Qarang: Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. I жилд. А. Расулов таржимаси. Тошкент. 1968. – Б.261.